



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 26 - yanvar

34-10-0-Q/23

Toshkent viloyati hokimiligi

Viloyat hokimining 2022-yil 3-noyabrdagi 578-10-0-Q/22-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatga tashrifi davomida va 2022 yil 22 sentabr kuni Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida bergan topshiriqlari bo‘yicha tasdiqlangan 67-sonli majlis bayoni (02-RA 2-5530-son) 79-bandi ijrosini ta‘minlash, Toshkent viloyati Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasining 2022-yil 24-noyabrdagi 01-05/940-sonli xatini inobatga olib, taqdim etilgan boshqa hujjatlarini o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-sonli Farmonining 2-bandiga, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-sonli qarori, Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatga tashrifi davomida va 2022 yil 22 sentabr kuni Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida bergan topshiriqlari bo‘yicha tasdiqlangan 67-sonli majlis bayoni (02-RA 2-5530-son) 79-bandi ijro, Toshkent viloyati Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasining 2022-yil 24-noyabrdagi 01-05/940-sonli xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining 2022-yil 3-noyabrdagi 578-10-0-Q/22-sonli qarori 1-ilovasiga muvofiq Toshkent viloyati Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilgan yer maydonlari quyidagicha:

Ohangaron shahar “Guliston” MFY hududidagi 0,06 gektar yer maydoni – Ohangaron tumani “Evalak” MFY hududidagi qishloq xo‘jaligi xaritasining 393-konturida joylashgan davlat zaxirasidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 0,06 gektar yer maydoniga;

Nurafshon shahar “Dexqonobod” MFY hududidagi 0,05 gektar yer maydoni –

Bo‘stonliq tumani “Yakka tut” MFY hududidagi qishloq xo‘jaligi xaritasining 77-konturida joylashgan davlat zaxirasidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 0,06 yer maydoniga;

Chirchiq shahar “Iqbol” MFY hududidagi 0,06 gektar yer maydoni – Chinoz tumani “Eshonobod” MFY hududidagi qishloq xo‘jaligi xaritasining 360-konturida joylashgan davlat zaxirasidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 0,06 gektar yer maydoniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

4. Viloyat hokimining 2022-yil 3-noyabrdagi 578-10-0-Q/22-sonli qarori 3-bandi quyidagi qo‘shimcha band:

- Ishlab chiqilgan loyiha hujjatlarini “Toshkentboshplan LITI” DUK bilan kelishish kiritilsin.

5. Qarorning qolgan qismlari o‘zgartirishsiz qoldirilsin.

6. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (J.Axrоров) mazkur qarorga muvofiq viloyat yer fondiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

7. Viloyat qurilish bosh boshqarmasi (E.Po‘latov)ga qurilish loyiha hujjatarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilishiga amaliy yordam berish vazifasi yuklatilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev